



QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks: 652-14-65, 652-19-48

2022 - yil 4 - iyul

204-4-63-Q/22

Mirishkor tuman hokimligi

Mirishkor tuman hokimining eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 27 sentabrdagi PF-6075-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 sentabrdagi PF-6075-son Farmonida qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralari ko'rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Mirishkor tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Axborot xizmati (A.Yazdurdiev) mazkur qarorning rasmiy e'lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e'lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimning birinchi o'rinbosari A.Sariqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh.Ch.Sanayev

Mirishkor tuman hokimining
2022 yil 4 iyuldagi
204-4-63-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Mirishkor tuman hokimining “Mirishkor tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta‘lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 2019-yil 28-avgustdagi X-2610/08-son qarori.

2. Mirishkor tuman hokimining “Mirishkor tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta‘lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-iyuldagi HQ-1710/07-son qarori.

3. Mirishkor tuman hokimining “Mirishkor tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta‘lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 2021-yil 18-avgustdagi 279-4-63-Q/21 -son qarori.